



TA'LIM TIZIMIGA SUN'IY INTELEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Jalilov Jonibek Toxir o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati, uning o'quv jarayoniga ta'siri hamda ta'lim sifatini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Sun'iy intellekt vositalarining dars jarayonini individuallashtirish, o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayonini raqamlashtirish, o'quv axborot muhitini modernizatsiya qilish va intellektual tahlil tizimlarini joriy etish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiyalar, ta'lim tizimi, raqamlashtirish, o'quv jarayoni, intellektual tizimlar, ta'lim sifati, o'qitish samaradorligi.

O'zbekistonda demografik tarkibning o'sib borishi raqamli iqtisodiyot sharoitida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sun'iy intellektga asoslangan ta'lim uchun qulay sharoit yaratishga undamoqda. Mamlakat aholisi 2025-yil 37,5 milliondan ortmoqda Sun'iy intellektning prognozlariga ko'ra 2030-yilga kelib tahminan 41 millionga, 2050-yilga kelib esa 50 millionga yetadi deb qayd etmoqda. Aholining asosiy katta qismini yoshlar tashkil etadi. Aholining katta qismini yoshlar(14-30 yosh) tashkil etadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 25,7 foizini tashkil etib, o'rta yoshlilar esa (31-59) 35,2 foizni tashkil etadi.

Jahondagi globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida ham yangicha yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya standartlari zamon talablari doirasida takomillashtirilmoqda. Jumladan, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda sun'iy intellekt (AI)ni o'qitish tizimiga joriy etish orqali samaradorlikni oshirish keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yangi O'zbekistonda ham raqamlashtirish masalasiga alohida e'tior qaratilib ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunga kelib 10 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablari mavjud bo'lib, ushbu maktablarning 71,6 foizi internet tarmog'iga ulangan. Qishloq hududlarida esa ushbu ko'rsatkich 69,4 foizni tashkil etadi³⁵.

So'nggi yillarda yurtimizda raqamli ta'lim doirasida 14 mingta videodarslik, 750 ta maxsus video hamda sinflar kesimida 60 mingga yaqin taqdimotlar bazasi yaratildi. Ushbu yaratilayotgan dasturiy ta'minot natijasida ta'lim tizimi raqamli transformatsiyaga moslashmoqda. IT ta'limiga ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari 2022-yilda 30 tani tashkil etgan bo'lsa 2024-yilga kelib esa 17 taga ko'paydi. Bu ko'rsatkich 2025-yilda 128 taga va 2026-yilga kelib esa 140 taga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, Respublikamizda 550 dan ortiq xususiy IT-o'quv markazlarining tashkil etilishi ushbu yo'nalishda ta'limni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Milliy IT –xizmatlar eksportini oshirish maqsadida IT

³⁵ <https://www.gazeta.uz/en/2024/03/13/internet/>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sohasida kadrlar masalasiga ham alohida e’tibor berilib, 2023-yilda 23 ming nafar mutaxassisdan 2026-yilga kelib 80 ming nafar va 2030-yilga kelganda esa 300 minnga yetkazish rejalashtirilgan.

Davlat dasturlari doirasida raqamli ko’nikmalarga sarmoyalar kengaytirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-51-son qaroriga muvofiq “Xalqaro IT – sertifikatlariga ega yoshlarni o’qishi hamda ushbu sertifikatni olish xarajatlarining 60 foizigacha bo’lgan qismi davlat tomonidan qoplab berilishi, Ingliz tilini bilish bo’yicha B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega bo’lgan yoshlarning xalqaro IT-sertifikatini olish xarajatlari davlat tomonidan to’liq qoplab berilishi belgilab qo’yilgan”³⁶. Bundan tashqari, “Bir million o’zbek dasturchi” loyihasi doirasida 1,2 milliondan ortiq bepul litsenziya tarqatildi. “IT Skills (2023-2025)” dasturi 100 ming o’quvchini qamrab olib, 5 ming yuqori malakali mutaxassis tayyorlashni maqsad qilgan. 26 mingdan ortiq yoshlarga kompyuter xaridi uchun foizsiz kreditlar ajratilmoqda³⁷.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-358-son qarori³⁸da belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida Oxford Insights hukumatining sun’iy intellektga tayyorgarlik indeksida 17 pog’ona yuqorilab, 188 mamlakat orasida 70-o’rinni, Markaziy Osiyoda esa 1- o’rinni egallagani diqqatga sazovor³⁹. Ushbu omillar natijasida raqamli ta’lim uchun foydalanuvchilar bazasi kengaytirilib, sun’iy intellekt sohasida kadrlar zahirasi kuchaytirish vazifasini belgilab beradi.

AI strategiyasi 2030- (PQ-358-son) qaroriga muvofiq quyidagi maqsadlar belgilab olingan. Sun’iy intellekt sohasidagi mahsulot va xizmatlarni 1,5 milliard dollrga yetkazish; yagona elektron hukumat portalidagi xizmatlarning 10 foizini SI asosida ta’minlash; kamida 10 ta ilmiy laboratoriya ochish va yuqori quvvatli hisoblash resurlarini joriy etish; hukumatning sun’iy intellektga tayyorgarlik indeksida birinchi 50 o’rindagi davlatlar qatoriga kirishishga erishish. Strategiyaning huquqiy asoslari, standartlari va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, SI loyihalari uchun texnik infratuzilma yaratish hamda umumxalq ko’nikmalarini rivojlantirishni ko’zda tutadi⁴⁰.

O’zbekiston Respublikasida AI strategiya 2030ga muvofiq “Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish” formativ va avtomatlashtirilgan baholash, o’qituvchilar uchun darslarni rejalashtirish, interaktiv va shaxsga yo’naltirilgan ta’lim hamda yagona milliy aqli ta’lim platformasini joriy etishni ustuvor vazifa etib belgilaydi. Konsepsiya texnik va funksional talablarni, maxfiylik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish choralarini hamda uzluksiz

³⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-6786586?ONDATE=02.02.2024>

³⁷ Data provided by the Ministry of digital technologies

³⁸ <https://lex.uz/docs/-7158604>

³⁹ https://oxfordinsights.com/wp-content/uploads/2024/12/2024-Government-AI-Readiness-Index-2.pdf?utm_source=chatgpt.com

⁴⁰ <https://lex.uz/en/docs/7159258>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



takomillashtirish mexanizmlarini belgilaydi. U bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va 2030-yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.

Aning ta’lim tizimiga keng joriy etilishi natijasida ushbu ilg’or texnologiyalardan foydalanish yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Uning ta’lim tizimiga joriy etilishi natijasida o’quvchilarning o’zlashtirishini nazorat qilish, bilim darajasi va mashg’ulotlarga tayyorgarligini baholash imkoniyati orqali vaqtning tejalisiga erishiladi. Sun’iy intellekt orqali ta’limni individuallashtirish mumkin. Ya’ni har bir o’quvchi uchun individual o’quv rejasini yaratish va nazorat qilish mumkin. Ushbu reja pedagog va psixologlar tomonidan ishlab chiqilib, o’quvchilarning qobiliyatlari, motivatsiyalari va boshqa shaxsiy ko’rsatkichlarini aniqlashga erishish mumkin. Sun’iy intellekt katta tarmoqdagi tarqoq ma’lumotlarni yig’ib umumiy xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek u vaziyatni prognozlash, so’rovga qarab tugatish variantlarini taklif qiladi. Bu esa vaziyatni tahlil qilish, talabaning qiziqishini aniqlash, psixologik holati haqida ma’lumotga ega bo’lishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida so‘zlagan nutqida ham ta’lim tizimiga alohida urg‘u berib, “Pedagoglarning o‘zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O‘zbekiston butunjahon professional ta’lim sammitini o‘tkazish taklifini berdi”. Shu bilan birga “Mamlakatlar o‘rtasida raqamli rivojlanish va sun’iy intellektidan foydalanishda tengsizlikni oldini olish juda muhim ahamiyatga ega. Sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniyat sohalarida sun’iy intellektning amaliy yechimlari va modellarini beg‘araz almashishga qaratilgan Xalqaro hamkorlik mexanizmini yaratishni taklif etdi”⁴¹. Sun’iy intellektidan foydalanishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. 2024-yilda “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi tomonidan aholi o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazilib, unda ishtirok etgan 1422 nafar respondentlarning 89,4 foizi sun’iy intellekt haqida eshitganini tadiqlagan. 68,1 foizi ovozli yordamchilar va chatbot kabi sun’iy intellekt xizmatlaridan foydalangani, 80,8 foiz respondent esa sun’iy inteket sohasida ta’lim olish istagini bildirgan. Aholi o‘rtasida sun’iy intellektidan foydalanish ko‘nikmasi darajasi past ekani qayd etilgan. 19,1 foizi yaxsh tushunaman, 42,6 foizi o‘rtacha va 7,5 foizi esa umuman bilmayman deb javob bergan⁴².

O‘zbekiston Respublikasida demografik o‘shish sur‘atlari, yoshlar salmog‘ining yuqoriligi hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish zamon talabi, milliy raqamli transformatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimizda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, internet tarmog‘iga ulanish darajasini oshirish, IT ta’lim muassasalarini

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. 2025-yil 23-sentyabr. <https://president.uz/oz/lists/view/8525>

⁴² <https://infocom.uz/en/news/suniy-intellekt-boyicha-sorovnomani-tahlil-qilish>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ko‘paytirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va xalqaro sertifikatlash dasturlarini joriy etish orqali sun‘iy intellekt sohasida mustahkam poydevor yaratilmoqda.

AI strategiyasi – 2030 (PQ-358-son qaror) asosida belgilangan vazifalar nafaqat texnik salohiyatni, balki inson kapitalini rivojlantirish, ta‘limda innovatsion yondashuvni kengaytirish, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish modelini shakllantirish imkonini beradi. Ta‘lim jarayoniga sun‘iy intellektni keng joriy etish orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, bilim sifati va individual rivojlanish ko‘rsatkichlari yanada oshadi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalarining ta‘limga tatbiqi o‘qituvchilarning ish faoliyatini optimallashtirish, o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda individual o‘quv rejalari tuzish, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish va ta‘lim sifatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, sun‘iy intellekt sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, millatlar o‘rtasida raqamli tengsizlikni kamaytirish hamda sun‘iy intellektidan ijtimoiy sohalarda samarali foydalanish global ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston ta‘lim tizimiga sun‘iy intellektni joriy etish -bu mamlakatning raqamli kelajagini barpo etishda, yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishda va ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim strategik qadamdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. 2025-yil 23-sentyabr. <https://president.uz/oz/lists/view/8525>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktyabrdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–358-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–51-son qarori.
4. Qodirova, M. Yoshlarning raqamli savodxonligini oshirishda sun‘iy intellektning o‘rni. “Ta‘lim va texnologiyalar” ilmiy jurnali, 2024. 1(2), 25–33.